



AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA MEHNAT RESURLARINI SAMARALI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Raxmatov Shuxrat Axatovich

BuxMTI, (PhD)

To'rayev Ikrom Iskandarovich

Osiyo xalqaro universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat resurslari tushunchasi, uning tarkibi, mehnat resurslari balansi, mehnat va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining iqtisodiy farovonligini ta'minlash, omonatlarni shakllantirishni va ularni samarali investitsiyalash shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar va uning hududiy taqsimoti to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aholi daromadlari, ish haqi, iqtisodiy resurslar, mehnat, kambag'allik, mehnat staji, pensiya, soliq, tadbirkorlik, uy xo'jaligi.

Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali tatbiq etish, aholini ish bilan ta'minlash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Mehnat resurslari esa bugungi iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlarida muhim salmoqqa ega. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini mikro, mezo va makro darajalarda ko'rish mumkin.

Mehnat resurslarining makro darajadagi ahamiyati ularning mamlakat yalpi iqtisodiyotidagi o'rni va asosiy boylik sifatida e'tirof etilishi bilan asoslanadi. Aynan mehnat orqaligina mamlakatda moddiy va nomoddiy boyliklar yaratiladi. Mazkur mehnatning sub'yekti (muallif va ijrochisi) esa bevosita inson, ya'ni mehnat resurslaridir. Demak, mehnat resurslarining barcha darajadagi ahamiyati ularning tadqiq etishning ham ilmiy, ham iqtisodiy dolzarbligini belgilab beradi.

“Mehnat resurslari” va “ishchi kuchi” tushunchalari turli mazmunga ega bo'lib, mehnat resurslarining ishchi kuchiga aylanish jarayoni bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi.

Ishchi kuchi mehnat faoliyatini to'xtatishi bilan yana iqtisodiy nafaollik tusini oladi, lekin mehnat resursi tarkibida qoladi.

“Mehnat resurslari” va “ishchi kuchi” tushunchalari o'rtasidagi o'xshashlik ikkala toifaga kiruvchi kishilar ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashishlari uchun o'zlarida mehnat layoqatini mujassamlashtirganligidir.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi, hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan. yillik yoki undan Kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi, shuningdek, qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish mehnat resurslaridan samarali foydalanishni talab



qiladi. Bu esa shaxslarning manfaatlari, yashash tarzi, taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi barqarorlikka iqtisodiyotni yuksaltirishning ijobiy sur'alariga erishish hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-mehnat munosabatlarining barcha jihatlarini aholining turmush tarzi va daromadlariga bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy jihatdan olib qaraganda davlat insonning munosib turmushi va erkin rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni olib boradi. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri - mehnat va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish. mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining iqtisodiy farovonligini ta'minlash, omonatlarni shakllantirishni va ularni samarali investitsiyalashni ta'minlashga imkoniyatlar yaratish asosida aholining turmush darajasi va sifatini oshirishdir. Mehnat faoliyati va uning natijalari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-mehnat munosabatlari ish haqi va daromadlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy sherikchilik yangi shakllarining yuzaga kelishiga ijtimoiy himoyalanganlikning rivojlanishiga mehnat faoliyatidan qoniqishning oshishiga olib keladi.

Bozor munosabatlarining chuqurlashishi bosqichida aholining turmush darajasi va daromadlarning tabaqalanishi markaziy muammo bo'lib qoladi. Ularning hal qilinishiga ko'p jihatdan keyingi tub o'zgarishlar yo'nalishi va sur'atlari hamda oqibat natijada jamiyatdagi siyosiy barqarorlik bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, bu muammolarning hal qilinishi daromadlarning aniq ishlab chiqilgan siyosatini talab qiladi. Shuning uchun o'tkazilayotgan daromadlar siyosati aholining qatlam va guruhlarida, ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan tarkiblarida, davlat (hudud) hokimiyat organlarida, jamoat tashkilotlarida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda aholining turmush darajasini obvektiv statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil qilish, aholining pul daromadlari va xarajatlarini o'rganish, uy xo'jaliklarining iqtisodiyotda qatnashish darajasi va xarajatlar tasnifini tahlil etish dolzarb masala hisoblanmoqda. Respublikamizda aholini ijtimoiy himoya qilish, ish haqi va boshqa pul daromadlarini bosqichma-bosqich oshib borishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. o'z navbatida, aholi pul daromadlarining o'sishi, uning xarid qobiliyatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bozor munosabatlarining chuqurlashishi bosqichida aholining turmush darajasi va daromadlarning tabaqalanishi markaziy muammo bo'lib qoladi. Ularning hal qilinishiga ko'p jihatdan keyingi tub o'zgarishlar yo'nalishi va sur'atlari hamda oqibat natijada jamiyatdagi siyosiy barqarorlik bog'liq bo'ladi. Inson mehnat faoliyati bilan band bo'lgan ish joyi bilan: tarkibiga uning korxonasi, muassasasi, tashkiloti, firmasi kiradigan tarmoq bilan; korxonaning mulkchilik shakli bilan, uning tashkiliy-huquqiy shakli bilan; firmaning tovar, moliyaviy bozorlardagi va mehnat bozoridagi ofini bilan;



korxonaning texnik jihozlanganligi bilan, uning joylashgan o'rni bilan; jamoadagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarining rivojlanganligi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистан Республикаси Конституцияси. - Т': Узбекистон, 2012.
2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. -Х: Адолат, 2007.
3. Раҳманов Ш.Р., Одинаев Д.Ш. Пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибаси: Дарслик - Т.: «Iqtisod-Moliya», 2018. 400 б.12.
4. Vaxabov A.V., Zahidova Sh.Sh., Baxtiyorov B.B., Odinayev D.Sh., Fayzullayev J.N. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik. - Т.: «Iqtisod-Moliya», 2018.
5. Шодиев Б.С, Юлдошев З.Т. Аҳоли турмуш даражасини оширишда меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари. Давлат статистика қўмитасининг “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2019 йил, 1-сон
6. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти назария ва амалиёт.Дарслик. – Т.: ЎзР ФА “FAN” нашриёти, 2019.
7. Jumayev R.B Aholi turmush darajasini barqarorligini ta'minlashda mehnatga haq to'lash hisobini takomillashtirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor.